

MATN TILSHUNOSLIGI: NAZARIY ASOSLAR VA LINGVISTIK XUSUSIYATLAR

Xaydarova Shoiratoxir qizi

**Ilmiy rahbar: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali
Psixologiya Fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish: Ingliz tili yo'nalishi**

shoiraxaydarova@mail.ru

Xolmo'minova Nesbali Odiljon qizi

401-22 guruh talabasi: nasibaxolmominova86@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18107408>

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan matn tilshunosligi tushunchasi nazariy va amaliy jihatdan atroflicha yoritilgan. Tadqiqot davomida matn tilshunosligining shakllanish tarixi, asosiy tushunchalari hamda tilni kommunikativ birlik sifatida o'rganishdagi o'rni tahlil qilindi. Shuningdek, matnning yaxlitligi, mantiqiy bog'liqligi va mazmuniy izchilligini ta'minlovchi omillar — kohesiya va koherensiya masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Tadqiqot nazariy va amaliy metodlar asosida olib borildi. Nazariy qismda yetakchi tilshunos olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilinib, matnni lingvistik birlik sifatida talqin qilish masalalari o'rganildi. Amaliy qismda esa oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan talabalarning va maktab o'quvchilarining yozma ishlari asosida matn tilshunosligi elementlarining ta'lim jarayonida qo'llanishi kuzatildi va tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, matn tilshunosligi asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalar yozma nutqining mantiqiyligi, ravonligi va tuzilishining yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari matn tilshunosligini akademik yozuv, nutq madaniyati va til o'qitish jarayoniga integratsiya qilish zarurligini asoslab beradi. Mazkur maqola matn tilshunosligini o'rganayotgan talabalar, yosh tadqiqotchilar hamda til o'qituvchilari uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, kelgusida ushbu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: matn tilshunosligi, diskurs, kohesiya, koherensiya, pragmatika, lingvistik tahlil, kommunikativ birlik, yagona sintaktik butunlik, mazmun, ma'no, bog'lanish.

Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda til birliklarini faqat gap yoki so'z darajasida emas, balki yaxlit matn sifatida o'rganish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu ehtiyoj natijasida XX asrning ikkinchi yarmida matn tilshunosligi mustaqil fan sohasi sifatida shakllandi. Ushbu soha tilning kommunikativ vazifasini chuqurroq anglash, nutqning tuzilishi va mazmuniy yaxlitligini tahlil qilish imkonini beradi. Matn tilshunosligi nutqning yozma va og'zaki shakllarini, ularning tuzilishini, mazmuniy bog'liqligini, kontekst bilan aloqasini o'rganadi. Ayniqsa, ta'lim jarayonida, tarjimashunoslikda, jurnalistika va badiiy adabiyot tahlilida ushbu fan muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda o'zbek tilshunosligida matnni kompleks tahlil qilishga ehtiyoj ortib bormoqda. Tadqiqotning asosiy maqsadi — matn tilshunosligi tushunchasini nazariy va amaliy jihatdan yoritish, uning ta'lim jarayonida qo'llanish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot metodlari

Ushbu tadqiqot nazariy va amaliy yo'nalishda olib boriladi va tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Nazariy tahlil metodi; bunda Ilmiy maqolalar, darsliklar va monografiyalarni tahlil qilindi. Xususan: hajm belgisiga ko'ra matn tiplari, matnning lingvistik xususiyatlari; kohesiya va koherensiya tushunchalari; diskurs va pragmatika bilan bog'liq qarashlar o'rganildi. Har bitta metodga alohida e'tibor qaratilganda: Matnni hajm belgisiga ko'ra ikkiga ajratamiz: Minimal matn (mikromatn) va maksimal matn (makromatn). Shuni ham aytib o'tish kerakki, ayrim adabiyotlarda matn hajm jihatidan uchga ajratilgan: kichik, o'rta va katta hajmli matnlar. «Telegramma, ma'lumotnoma, ariza, ishonch xati, tushuntirish xati hamda vaqtli matbuotda chiqadigan e'lon va kichik xabarlar kichik hajmdagi matnlar sanaladi. O'rta hajmdagi matnlarga hikoya, qissa, she'r, doston, poemalar kiradi. Katta hajmdagi matnlarga povest, roman, dramatik asarlar, trilogiyalar kiradi».¹

Matnning lingvistik xususiyatlari

1 Yaxlitlik (butunlik)	Matn bitta umumiy mavzu va g'oyaga xizmat qiladi.	Barcha gaplar asosiy fikrni qo'llab-quvvatlaydi.
2. Bog'liqlik (koheziya)	Gaplar o'zaro til vositalari orqali bog'lanadi.	Olmoshlar: u, bu; Bog'lovchilar: va, ammo; Takroriy so'zlar.
3. Mantiqiy izchillik (koherensiya)	Fikrlar ketma-ket va mantiqan rivojlanadi.	Sabab → oqibat; Muammo → yechim.
4. Grammatik to'liqlik	Matn grammatik jihatdan to'g'ri gaplardan iborat.	Zamonlar mosligi, shaxs-son birligi.
5. Leksik yaxlitlik	Matnda mavzuga oid so'zlar tizimli ishlatiladi.	Faqat mavzu bilan bog'liq leksika ishlatiladi.
6. Stilistik moslik	Matn tili uslubiga mos bo'ladi.	Ilmiy matn — aniq; Badiiy matn — obrazli.
7. Axborot yangiligi	Matn yangi ma'lumot beradi yoki boyitadi.	Takroriy ma'lumotlar kam ishlatiladi.

Taqqoslash metodi

O'zbek va ingliz tilidagi matnlar solishtirildi. Bu metod: matn tuzilishidagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlash; matn tilshunosligining universalligi va milliy xususiyatlarini ko'rsatish imkonini berdi. Misol uchun bir talaba yozgan o'zbekcha va inglizcha matnni taqqoslagan holda:

“Kitob o'qishning ahamiyati”

Kitob o'qish insonning bilim doirasini kengaytiradi va tafakkurini rivojlantiradi. Har kuni kamida bir soat kitob o'qish foydali odat hisoblanadi. Kitob o'qish orqali inson boshqa odamlarning tajribalarini o'rganadi va yangi fikrlarni shakllantiradi. Shuningdek, kitob o'qish so'z boyligini oshiradi va yozma nutqni yaxshilaydi. Shu sababli, har bir inson kitob o'qishga odatlanishi kerak.

“The Importance of Reading Books”

Reading books expands a person's knowledge and develops their thinking skills. Spending at least one hour a day reading is a useful habit. Through reading, people can learn from the

¹ Қиличев Э. Матннинг лингвистик таҳлили. -Бухоро: Бухоро университети, 2000, 6-7-б.

experiences of others and form new ideas. In addition, reading increases vocabulary and improves writing skills. Therefore, everyone should get used to reading books regularly.

Mavzu izchilligida o'zbekcha matnda fikrlar ketma -ket berilgani ammo ba'zi bog'lovchilar yetishmaganligi ingliz tilidagisida esa fikrlar aniq va yetalicha bog'lovchilar ("and", "in addition", "therefore") ishlatilganligi ko'rinadi. Matn tuzilishida esa ikkisida ham :kirish, asosiy qism va xulosa mavjudligi tahsinga sazovordir.

Amaliy kuzatish metodi

Tadqiqot oliy ta'lim muassasasida yoki maktablarda amalga oshirildi. Ingliz tili va ona tili yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning va maktab o'quvchilarining: yozma insholari; akademik matnlari; nutq namunalaridagi matn yaxlitligi kuzatildi.

Matn tahlili metodi

Talabalarning yozma ishlarida: mantiqiy bog'lanish; mavzu izchilligi; bog'lovchi vositalardan foydalanish darajasi tahlil qilindi.

Natijalar

Matn tilshunosligi elementlari dars jarayonida qo'llanganda talabalar va o'quvchilar matnni yaxlit holda tushuna boshlaydi, insholarda mavzudan chetga chiqish holatlari kamayadi, mantiqiy bog'lanish kuchayadi. Tadqiqotdan oldin qatnashchilarning yozma nutqida gaplar o'zaro bog'llanmagan, matnning kirish, asosiy qism va xulosa qismlari aniq ajratilmagan bo'lsa tadqiqotdan keyin kohesiv vositalar ya'ni bog'lovchilar, olmoshlar nisbatan to'g'ri ishlatildi, matn tuzilishi aniqlashdi, va fikr bayoni ravonlashgani kuzatildi. Bu tadqiqotdan ko'zlangan amaliy samaradorlik akademik yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish, nutqiy kompetensiyani oshirish, va mustaqil fikrlashni shakillantish hisoblanadi. Matn tilshunosligi doirasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, matn gaplarning oddiy yig'indisi emas, balki mazmunan va tuzilish jihatdan yaxlit bo'lgan birlikdir. A. Greimas matnni birlamchi hodisa sifatida talqin qilib, u dastlab yaxlit holda yaratilishini, keyinchalik esa tahlil jarayonida qismlarga ajratilishini ta'kidlaydi². Shuningdek, P. Giro matnni o'zaro bog'langan yopiq birliklar tizimi sifatida baholaydi. Uning fikricha, matnni tashkil etuvchi barcha unsurlar stilistik ta'sirni ta'minlash maqsadida yagona tizimga bo'ysunadi³. Matnning jarayon xarakteriga ega ekanligi Tzvetan Todorov tomonidan asoslab berilgan. Unga ko'ra, matn sintaktik va semantik xususiyatlarga ega bo'lib, gaplar orasidagi bog'lanish matnning yaxlitligini ta'minlaydi⁴. Bundan tashqari, Nils Erik Enkvist matnning uch asosiy parametri — mavzu, fokus va bog'lanishni ajratib ko'rsatadi.⁵ Bu parametrlar matnning ichki tuzilishini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, matn tilshunosligi tilni faqat strukturaviy birliklar darajasida emas, balki kommunikativ va semantik tizim sifatida o'rganishga imkon beradi. Matnda mazmun va ma'no tushunchalarini farqlash muhimdir. Mazmun matndan olinadigan umumiy axborotni bildirsa, ma'no alohida til birliklariga xos bo'lgan axborotni anglatadi. Mazmunning tugallanganligi matnning asosiy belgisi hisoblanadi, holbuki gapda fikr nisbiy tugallikka ega. Bu holat matnni gapdan farqlovchi asosiy mezonlardan biri sifatida qaraladi. Rus

² A. Greimas. Structural Semantics. — Paris, 1966.

³ P. Giro. Sémiologie. — Paris, 1970.

⁴ Tzvetan Todorov. Poétique de la prose. — Paris, 1971.

⁵ Nils Erik Enkvist. Linguistic Stylistics. — The Hague, 1973.

tilshunosligida bu masala chuqur o'rganilgan bo'lib, matn va muallif shaxsi o'rtasidagi bog'liqlik alohida ta'kidlangan⁶.

Xulosa qilib aytganda, matn tilshunosligi zamonaviy tilshunoslikning muhim va istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. Tadqiqot natijalari ushbu matnshunoslik fani ta'lim sifatini oshirishga, yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishga va kommunikativ kompetensiyani shakillantirishga xizmat qilishini isbotladi. Matn — bu mazmunan tugallangan, strukturaviy jihatdan yaxlit va kommunikativ vazifani bajaruvchi nutq mahsulidir. Matn tilshunosligi tilshunoslikning boshqa sohalari — pragmatika, stilistika va diskurs tahlili bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Мамажонов А. Текст лингвистикаси.-Тошкент, ТДПИ, 1999.
2. Ёўлдошев Б. Матнни ўрганишнинг лингвостатистик методлари. –Самарқанд, 2008.
3. М.Т. IRISQULOV TILSHUNOSLIKKA KIRISH-Toshkent,2009
4. https://tsuull.uz/sites/default/files/saparniyozova_0.pdf
5. THE ROLE OF FOREIGN LANGUAGES IN MODERN LIFE. (2023). "XXI ASRDA INNOVATION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" Nomli Respublika Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi, 1(11), 208-212. <https://universalpublishings.com/index.php/itftdm/article/view/2918>
6. THE IMPACT OF DIGITAL DICTIONARIES ON LANGUAGE LEARNING EFFICIENCY AMONG UNIVERSITY STUDENTS. (2024). "XXI ASRDA INNOVATION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" Nomli Respublika Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi, 2(11), 398-401. <https://universalpublishings.com/index.php/itftdm/article/view/8145>
7. Fayzullayeva, U. (2023, March). NEW VIEWS IN UNDERSTANDING POSTMODERN PHILOSOPHY. In Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities (Vol. 2, No. 4, pp. 114-118).
8. Fayzullaeva, U., & Togaev, S. (2024). "POSTMODERNISM" ITS ORIGINS AND DEVELOPMENT. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(3), 19-22.
9. Tog'Ayev Sarvar Eshniyoz, O. G., & Fayzullayeva, U. (2023). Understanding Postmodernism: Postmodern Culture and Philosophy.
10. Fayzullaeva, U., & Togaev, S. (2024). A LITERARY PHENOMENON IN THE POSTMODERN ERA. IJODKOR O'QITUVCHI, 4(37), 146-148.

⁶ V. V. Vinogradov. О художественной прозе. — Москва, 1930.